

O'ZBEK VA ITALYAN TILLARI MATNLARIDA "QO'RQUV" KONSEPTINING KOGNITIV-METAFORIK TALQINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20109377>

Muborak Madraximova

ADCHTI mustaqil izlanuvchisi

muborak27@inbox.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va italyan tillarida "qo'rquv" konseptining kognitiv-metaforik ifodalanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda qo'rquv emotsiyasining konseptual strukturasi tashkil etuvchi metaforik modellar, ularning semantik asoslari va lingvomadaniy xususiyatlari aniqlanadi. Natijalar qo'rquv konseptining universal va milliy jihatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar

qo'rquv konsepti, kognitiv metafora, konseptualizatsiya, emotsional leksika, metaforik model, lingvokognitiv tahlil

Аннотация

В статье анализируется когнитивно-метафорическое выражение концепта «страх» в узбекском и итальянском языках. Выявляются метафорические модели, их семантические особенности и культурная специфика.

Ключевые слова

концепт страха, когнитивная метафора, концептуализация, эмоциональная лексика

Abstract

This paper explores the cognitive-metaphorical representation of fear in Uzbek and Italian. It identifies metaphorical models, semantic structures, and cultural specificity.

Keywords

fear concept, cognitive metaphor, conceptualization, emotional vocabulary

Emotsiyalarni til orqali ifodalash inson tafakkurining muhim jihatlaridan biridir. Qo'rquv – insonning asosiy biologik va psixologik reaksiyalaridan biri

bo'lib, u til tizimida turli metaforik shakllar orqali ifodalanadi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik bu jarayonni konseptual metafora orqali izohlaydi.

George Lakoff va Mark Johnson ta'kidlaydi: "Metaphor is pervasive in everyday life, not just in language but in thought and action."¹

Shu nuqtai nazardan, qo'rquv konsepti ham insonning jismoniy va tajribaviy hissiyotlariga asoslangan metaforalar orqali shakllanadi.

Kognitiv metafora – abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali anglash mexanizmi. Zoltán Kövecses fikricha: "Emotions are conceptualized via bodily experiences and cultural models."²

Hissiy tushunchani o'rganishda asosiy jihat matndagi reprezentantlarning individual vazifasini tahlil qilishdir, chunki inson hissiyotlari til belgilarida ifodalanganida matnning semantik tuzilmasida personajlar nutqida to'liq va aniq tarzda aks etadi.

Badiiy matn – bu kommunikatsiyaning eng muhim birligi bo'lib, u yozuvchi tomonidan ma'lum mantiqiy mazmunli ma'lumotni yetkazish maqsadida yaratiladi. O'quvchi bu ma'lumotni qabul qilish jarayonida, ayniqsa insonning emotiv sohasiga oid bilimlar bilan tanishayotganda, o'zining shaxsiy emotsional tajribasiga, ensiklopedik bilimlarga va asar o'qishdan oldingi ma'lumotlariga murojaat qiladi. Natijada o'quvchi nafaqat umumiy mazmunni tushunadi, balki matnda tasvirlangan eng muhim his tuyg'ularni ham aniqlaydi, ular matnda obyektivlashtirilgan, ya'ni til orqali ifodalangan holatda namoyon bo'ladi.

Badiiy matnlarda "qo'rquv" his tuyg'usiga doir tushunchalar quyidagicha faollashadi:

a) personajlar tomonidan qo'rquv holatlari tavsiflanadi, ya'ni bunda qahramonlar qo'rqayotgan vaziyatlar tasvirlanadi;

b) personajlar o'z harakatlarini dunyoqarashi, e'tiqodlari, his tuyg'ulari va emotsiyalariga qarab belgilaydilar, bunda harakatlar o'quvchi ongida emotsional voqelik sifatida jonlanadi;

g) matnda shaxs tomonidan qo'rqinchni boshdan kechirish holati "emotsional vaziyat" sifatida tasvirlanadi ;

d) matnda bunday vaziyatlarni ajratib ko'rsatish muloqot ishtirokchilarining hissiyotlarni boshdan kechirishi bilan bog'liq holatlar haqidagi bilimiga, shuningdek, o'quvchining individual hissiy ta'sirchanligiga asoslanadi;

e) matnda "qo'rquv" emotsional tushunchasi til orqali verbalizatsiya qilinadi;

y) matn davomida ushbu verbal vositalar asosiy emotsional voqea ssenariysi yoki deviant (odatiy bo'lmagan) emotsional vaziyatlar ssenariylari shaklini oladi;

i) ssenariy – bu biror voqealar ketma ketligini aks ettiruvchi dinamik matn bo'lib, u ma'lum ijtimoiy kontekstda bo'lib o'tadi va u rollar hamda makon-zamon belgilariga ega bo'ladi .

Matndagi his-tuyg'ularni aks etishini ifodalovchi mazkur mezon qo'rquv tushunchasi subyektivlik xususiyatidan tashqari obyektiv ifodalar bilan murakkab tuzilmalarda holat ekanligidan dalolat beradi. Matn yuzasidan tahlillar his-tuyg'ularni qanday til vositalari bilan ifodalangani hamda ularning semantik shakllanishini ko'rsatadi.

Matnning konseptual tuzilmasi insonning hayotiy syujetlarini aniqlash va tushunish vositasi sifatida qaraladi, shuning uchun unda bir nechta bosqich mavjud: bular syujetning kirish qismi, kulminatsiya va yechim. Bu yondashuv adabiy syujet tahlilida keng qo'llaniladi .

Leksik materialga asoslangan freym modeli statik xarakterga ega. Biroq matnning dinamik tabiati uni modelning dinamik shaklida – ssenariy ko'rinishida kechishni talab qiladi. Matnda voqea tafsilotlarini izohlashda leksik vositalardan foydalanilar ekan, uning dinamikligi nutqda talqin qilishda zarur tajribalarga foydalanib qurilganda kuzatiladi.

Qo'rquv konsepti. Qo'rquv – xavfga javoban yuzaga keladigan emotsiya. Anna Wierzbicka yozadi: "Fear is a universal human emotion, but its linguistic expression varies across cultures."³

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi: qiyosiy tahlil, semantik analiz, kognitiv model yaratish, diskursiv tahlil.

Material sifatida: badiiy matnlar, lug'atlar, ommaviy nutq.

O'zbek tilida metaforik modellar. Qo'rquv = sovuqlik. "Qon muzlab ketdi", "badani uvishdi". Bu model fiziologik reaksiyaga asoslanadi.

QO'RQUV = BOSIM. "yuragi siqildi", "ko'ksiga og'irlik tushdi"

QO'RQUV = HAKAKAT. "yuragi orqaga tortdi"

QO'RQUV = OBYEKT. "qo'rquv ichini egalladi"

ITALYAN TILIDA METAFORALAR

FEAR = COLD. *gelare il sangue*

FEAR = ENEMY. *la paura lo ha colpito*

FEAR = LIQUID. *pieno di paura*

FEAR = FORCE. *essere sopraffatto dalla paura*

QIYOSIY TAHLIL

Umumiylıklar: universal metaforalar mavjud, fiziologik asos umumiy

Farqlar: o'zbek tilida obrazlilik kuchli, italyan tilida abstraktlik yuqori

Natijalar shuni ko'rsatadiki: metaforalar inson tanasi bilan bog'liq, qo'rquv konsepti embodied cognition asosida shakllanadi.

George Lakoff nazariyasiga ko'ra: "The mind is inherently embodied."⁴

1. Qo'rquv konsepti metaforik tizim orqali ifodalanadi. O'zbek va italyan tillarida umumiy model mavjud. Farqlar madaniy asosga ega. Moddiy farovonlik va uni saqlab qolish muammosi insonlar uchun iqtisodiy tahdid bo'lib, mos ravishda qo'rquvni keltirib chiqaradi: Masalan, o'zbek tilida: - *Aytdim! - Oqsoqol buva birovg'a o'chakishgandek jahl bilan qo'lini paxsa qildi. - Bolsheviklik vijdonimni o'rta qo'yib, kafolat beramanki, bitta-yarimta imonsiz ma'limga tuhmat qilgan, dedim!* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar. B.63) Berilgan misolda qo'rquv ochiq ko'rinishda berilmagan, ammo implitsit tarzda mavjud. Oqsoqol buva nutqida jahl va qat'iylik bilan birga, vijdoniy xavotir va o'zini himoya qilish hissi seziladi. "Bolsheviklik vijdonimni o'rta qo'yib, kafolat beramanki" birikmasi shaxsning ichki xavfsizlikni saqlash va noto'g'ri ayblovlardan qo'rquv tufayli yuzaga kelgan ehtiyotkorligini ko'rsatadi. Misolda qo'rquv implitsit tarzda, ijtimoiy xavf va o'zini himoya qilish orqali namoyon bo'lib, jahl bilan uyg'unlashgan emotsional ta'sirni shakllantiradi. Italyan tilida: *Ogni giorno era una lotta per sopravvivere, e la paura di non avere da mangiare dominava i pensieri* (Alberto Moravia, La Ciociara). Ikkinchi jahon urushi davrida oddiy odamlar urush tufayli iqtisodiy qiyinchiliklardan qo'rqadi.

Keltirilgan qo'rquv va uni keltirib chiqaruvchi tahdidlar tasnifi qo'rquv va tahdid ifodalovchi birliklarining uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu ro'yxat o'zbek va italyan tillarida so'zlashuvchi jamiyat nuqtai nazaridan biologik va ijtimoiy jihatdan inson uchun xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan tipik mohiyat va hodisalarni ta'kidlaydi. Shunday qilib, aniqlangan tahdid omillariga javoban yuzaga keladigan qo'rquv turlarining matndagi ifodalarini tahlil qilish tahdid ma'nosining tipik konseptual-semantik mazmunini belgilab beradi. Qo'rquv nomlarining tahdid nomlari bilan kontekstual birikuvchanligini tahlil qilish esa qo'rquvni ifodalovchi birliklar ma'nosining yaqin implikatsion qatlamini kengaytirishga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago, 1980.
2. Kövecses Z. *Metaphor and Emotion*. Cambridge, 2000.
3. Wierzbicka A. *Emotions Across Languages and Cultures*. Cambridge, 1999.

4. Lakoff G. *Women, Fire, and Dangerous Things*. 1987.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2020.
6. Dizionario della lingua italiana. Roma, 2018